

QASHQADARYO SHAHAR MANZILGOHLARI RIVOJLANISHIDA TRANSPORT YO'LLARINING TA'SIRI

Abdishukurova M.A. –

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotation. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati shahar manzilgohlari rivojlanishida transport yo'llarinining ahamiyati tahlil qilingan. Transport kommunikatsiyalari shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o'ynash bilan bir vaqtida shaharlar taraqqiyotini boshqarishning asosiy dastaklaridan biri ekanligi ham keltirib o'tilgan.

Keywords: Qashqadaryo viloyati, transport, urbanizatsiya, Shahrисабз, infratuzilma, hududiy rivojlanish, mineral resurs, xom-ashyo.

The influence of transport routes on the development of urban settlements in Kashkadarya

Abstract: This article analyzes the importance of transport routes in the development of urban settlements in the Kashkadarya region. It is also noted that transport communications play an important role in the emergence and development of cities, as well as being one of the main levers for managing urban development.

Key words: Kashkadarya region, transport, urbanization, Shahrисабз, infrastructure, regional development, mineral resources, raw materials.

Transport kommunikatsiyalari shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o'ynash bilan bir vaqtida shaharlar taraqqiyotini boshqarishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. N.N. Baranskiy aytganidek, shaharlar va yo'llar har bir hududning o'ziga xos „qovurg'asi” , iqtisodiy geografiyasining o'zagi va asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda , Qashqadaryo ham urbanistik hudud , yo'l va yo'laklar shakllangan.

Qashqadaryo transport tizimining o'ziga xos tomoni yirik avtomobil va temir yo'llarining bir-biriga parallel ravishda o'tkazilganligi bo'lib, viloyatning asosiy shaharlari aynan shu yo'llar yoqasida shakllangan. Bugungi kunda mintaqqa shaharlar manzilgohlarining hududiy qiyofasini beshta avtomobil yo'llari belgilab beradi. Shundan asosiy ahamiyatga ega bo'lgan, Toshkent- Termiz Katta O'zbek trakti va Buxoro –Qarshi yo'nalishlari viloyatning asosiy transport tizimi hisoblanadi. Qadimda Buyuk Ipak yo'li o'tganligi sababli ham, viloyatning Shahrisabz, Kitob, G'uzor singari ko'xna shaharlari aynan mazkur yo'l bo'yida bunyod bo'lgan va asrlar davomida rivojlanib kelgan.

Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan Buxoro – Qarshi avtomobil yo'llari bo'ylab esa viloyat shaharlarining atigi 11,4 foizi , shahar aholisining esa 30 foizidan ortig'i joylashgan . Albatta , bunda transport markazi bo'lgan Qarshi shahri aholisining mazkur yo'nalishga qo'shib hisoblanganligi shahar aholisining keskin ortishiga sabab bo'lgan. Bunda avvalo qo'riq yerlarda yangi avtomobil yo'llarini qurish va transport infrastrukturasini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Shu maqsadda viloyat miqyosidagi Tolimarjon – Qarshi va ko'plab mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo'llari qurildi. Hozirgi vaqtida mintaqaning Beshkent, Yangi- Nishon va Tolimarjon shaharlari mazkur hududda joylashgan.

Mustaqillik yillarida Toshg'uzor –Boysun- Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi va ushbu yo'l negizida ko'plab yangi transport infratuzilmasi tarmoqlarining tarkib topayotganligi , Dehqonobod va shunga o'xshash shaharchalarning har tomonlama rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga bu yo'l o'tmishda foydalanilmay kelayotgan Hisor tog'ining mineral-xom ashyo resurslarini o'zlashtirish va yangi ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etilishida muhim o'rinn tutadi. Transport yo'llari o'zaro tutashib, yangi shaharchalarning vujudga kelishiga , shuningdek , ijtimoiy infratuzilma sifatida shaharlarning kengayishiga zamin hozirlaydi. Binobarin , shaharlar rivojlanishini tartibga solishda transport kommunikatsiyalaridan keng foydalanish talab etiladi. Qashqadaryo viloyatida hozirgi

transport tizimida avtomobil yo'llari yetarli darajada shakllangan bo'lib, galdagi vazifa mavjud yo'llarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va yo'lbo'yi ijtimoiy infratuzilma shaxobchalarini yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, viloyatning asosiy shaharlari temir yo'l tarmoqlari bilan yaxshi ta'minlangan. Temir yo'llar hudud tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanishda, yirik sanoat obyektlarining qurilishida, aholining yangi ish o'rnlari bilan ta'minlashda, pirovardida shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida, yangi o'sish qutb va markazlarining shakllanishida muhim o'rinn tutadi. Shu sababli kelajakda viloyat temir yo'llarini elektrlashtirish va yangi temir yo'l transport vositalarini amaliyatga tadbiq qilib borish, yo'l bo'yi iqtisodiyoti va infratuzilmani rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga Qashqadaryo doirasida ayrim ichki ahamiyatga ega temir yo'llarni qurish ham viloyat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyati miqyosida Ayrитом- Chiroqchi – Yakkabog' temir yo'l liniyasi qurilishini taklif qilish mumkin. Yani bunda birinchi navbatda Chiroqchi va unga yaqin yangi shaharchalar temir yo'l infratuzilmasi bilan ta'minlanadi, Chiroqchi dashtining neft-gaz va boshqa tabiiy mineral resurslaridan yanada intensiv foydalanish imkoniyatlari oshadi. Shuningdek, mintaqaning Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi shaharlarini respublikaning shimoli-sharqiy viloyatlari bilan bog'lovchi hozirgi yo'lga nisbatan masofa 120-150 km.ga qisqaradi va tashilayotgan mahsulotlar tannarxining pasayishiga sezilarli ta'sir etadi. Bu holat ayniqsa Kitob- Shahrisabz botig'i tumanlarining kelajakda asosan tashish noqulay bo'lган transportable yuklar-qurilishi, meva – konserva, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashib borishi bilan yanada ahamiyati ortadi.

Shuningdek, Kogon shahridan Koson shahrigacha bo'lган hududda olib borilayotgan geologik qidiruv ishlari natijasida ko'plab yangi neft va gaz konlari aniqlangan. Kelajakda ana shu konlar bazasida yangi resurs shaharchalarning shakllanishi va mavjud shahar joylar tizimi natijasida Buxoro-Qumqo'rg'on urbanistik koridorining mazkur qismida ham shaharlar to'ri rivojlanib boradi. Qashqadaryo

viloyatida hozirgi transport yetarli darajada shakllangan bo'lib, galdagi vazifa mavjud yo'llarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va yo'lbo'yi ijtimoiy infratuzilma shaxobchalarini yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.- 686 b.
2. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. – T.: Yangi asr avlod, 2009. – 282 b.
3. Qurbanov P.R. Janubiy O'zbekistonda urbnizatsiya jarayonlari. Monografiya.- T.: "Mumtoz so'z", 2019.
4. Abdiholiqova G.A. Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari. Magistrlik dissertatsiya. 2022.
5. www.stat.uz
6. www.qashstat.uz